QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.065

GENDER YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KASBIY NAVIGATSIYASIDA MAHALLA VA MAKTAB INTEGRATSIYASI

Barotova Shoxsanam Baxtiyor kizi
Samarqand davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi assistenti
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-6324-217X

Annotatsiya. Maqolada gender yondashuv asosida umumta’lim maktabi o‘quvchilarining kasbiy navigatsiyasini tashkil etishda mahalla va maktab integratsiyasining nazariy asoslari hamda pedagogik mexanizmlari yoritilgan. “Kasbga yo‘naltirish” va “kasbiy navigatsiya” tushunchalarining farqi ochib berilib, “mahalla yettiligi” a’zolari va maktab pedagogik jamoasi funksiyalarining genderga sezgir integratsiyalashgan modeli taklif etilgan. Model maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-texnologik va natijaviy-baholovchi komponentlardan iborat bo‘lib, o‘quvchilarning yosh davrlariga mos to‘rt bosqichli kasbiy navigatsiya trayektoriyasini nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy navigatsiya, gender yondashuv, gender stereotiplar, mahalla yettiligi, maktab va mahalla integratsiyasi, ustozlik tizimi, kasbiy sinov, rol-model.

Аннотация. В статье раскрываются теоретические основы и педагогические механизмы интеграции махалли и школы в организации профессиональной навигации учащихся общеобразовательных школ на основе гендерного подхода. Разграничены понятия «профориентация» и «профессиональная навигация», предложена гендерно-чувствительная интегрированная модель функций членов «махаллинской семёрки» и педагогического коллектива школы. Модель включает целевой, содержательный, организационно-технологический и результативно-оценочный компоненты и предусматривает четырёхэтапную траекторию профессиональной навигации, соответствующую возрастным периодам учащихся.

Ключевые слова: профессиональная навигация, гендерный подход, гендерные стереотипы, «махаллинская семёрка», интеграция школы и махалли, система наставничества, профессиональная проба, ролевая модель.

Abstract. The article examines the theoretical foundations and pedagogical mechanisms of integrating the mahalla (local community) and the school in organizing gender-based career navigation for secondary school students. The concepts of “career guidance” and “career

navigation” are distinguished, and a gender-sensitive integrated model of the functions of the “mahalla seven” members and the school teaching staff is proposed. The model comprises target, content, organizational-technological and outcome-evaluative components and envisages a four-stage career navigation trajectory aligned with students’ age periods.

Keywords: career navigation, gender approach, gender stereotypes, mahalla seven, school–mahalla integration, mentoring system, career trial, role model.

KIRISH. Bugungi kunda mehnat bozori tez o‘zgarib, yangi kasblar paydo bo‘layotgan, an’anaviy kasblarning mazmuni esa raqamli texnologiyalar ta’sirida tubdan yangilanayotgan sharoitda o‘quvchilarning kasb tanlashga tayyorligi ta’lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Xalqaro tadqiqotlar o‘smirlarning kasbiy intilishlari juda tor doiradagi kasblar atrofida to‘planib qolayotganini, bu doira esa ko‘p hollarda jinsga bog‘liq ijtimoiy kutishlar bilan cheklanishini ko‘rsatmoqda. Natijada qizlar texnik, muhandislik va raqamli yo‘nalishlardan, o‘g‘il bolalar esa ijtimoiy-gumanitar va g‘amxo‘rlik sohasidagi kasblardan o‘z-o‘zidan chetlashadi.

O‘zbekiston Respublikasida bu muammoni hal etishning huquqiy asoslari yaratilgan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun [1], “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun [2], “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [3] va 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi [5] ta’lim va kasb tanlashda teng imkoniyatlarni ta’minlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilaydi. Ayniqsa, Prezidentning 2025-yil 10-sentabrdagi PF-163-son Farmoni bilan “mahalla yettiligi” va ta’lim muassasalari o‘rtasida bitiruvchi sinf o‘quvchilarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hamkorlik tizimi joriy etilgani, yoshlar yetakchilariga mahalla hududidagi kasb egalari va tadbirkorlar bilan birgalikda o‘quvchilar uchun ustozlik tizimini yo‘lga qo‘yish vazifasi yuklatilgani [4] mahalla va maktabning kasbga yo‘naltirish sohasidagi o‘zaro aloqasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi.

Biroq amaliyotda mahalla va maktab o‘rtasidagi hamkorlik ko‘pincha alohida tadbirlar, uchrashuvlar va hisobot xarakteridagi ishlar bilan cheklanib qolmoqda. Mahalla institutlarining imkoniyatlari maktabdagi kasbga yo‘naltirish ishlari bilan yagona tizimga birlashtirilmagan, bu jarayonda gender omili esa deyarli hisobga olinmaydi. Muallifning avvalgi tadqiqotlarida mahalla, oila va ta’lim muassasalari hamkorligining umumiy shart-sharoitlari [16; 17], xorijiy mamlakatlarda mahalliy hamjamiyat institutlarining genderga asoslangan kasbga yo‘naltirishdagi ishtiroki [18] tahlil qilingan edi. Ushbu maqolada esa masala yangi nuqtai nazardan - hamkorlikdan integratsiyaga, kasbga yo‘naltirishdan kasbiy navigatsiyaga o‘tish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotning maqsadi - gender yondashuv asosida o‘quvchilarning kasbiy navigatsiyasida mahalla va maktab integratsiyasining nazariy asoslarini aniqlash hamda uning pedagogik modelini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini bir nechta yondashuvlar tashkil etadi. U.Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga ko‘ra, bola rivojlanishiga bevosita muhitlar (oila, maktab, mahalla) bilan bir qatorda ular o‘rtasidagi aloqalar tizimi - mezotizim ham hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi [6]. Bu nazariya mahalla va maktabni alohida ta’sir manbalari sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit tarbiyaviy makon sifatida ko‘rib chiqishga asos beradi. J.Epshteynning maktab, oila va hamjamiyat sherikligi modeli esa hamkorlikning olti turini - ota-onalik, muloqot, ko‘ngillilik, uyda ta’lim olish, qaror qabul qilish va hamjamiyat bilan hamkorlikni ajratib ko‘rsatadi [7]. Mazkur model bizning sharoitimizda mahalla institutini maktabning teng huquqli sherigi sifatida talqin etish imkonini beradi.

Gender yondashuvning kasb tanlashdagi ahamiyati L.Gotfredsonning “cheklash va murosa” nazariyasida chuqur asoslangan. Unga ko‘ra, bola 6-8 yoshdayoq kasblarni “erkaklarga mos” va “ayollarga mos” guruhlarga ajrata boshlaydi hamda o‘z jinsiga “mos kelmaydigan” kasblarni keyinchalik deyarli qayta ko‘rib chiqmaydi [8]. S.Bemning gender sxemalari nazariyasi bu jarayonning kognitiv mexanizmini ochib beradi: shaxs ijtimoiy muhitda shakllangan gender tasavvurlari orqali axborotni “filtrlaydi” [9]. R.Lent va hammualliflari esa kasb tanlashga ta’sir etuvchi kontekstual to‘siqlar va qo‘llab-quvvatlovchi omillarni ajratib, ijtimoiy muhitning ahamiyatini ta’kidlaydi [11]. Ushbu nazariyalardan muhim pedagogik xulosa kelib chiqadi: genderga sezgir kasbiy navigatsiya boshlang‘ich sinflardan boshlanishi va bola yashaydigan butun ijtimoiy muhitni - mahallani qamrab olishi lozim.

Kasbiy o‘zini o‘zi belgilash masalalari rus pedagogika va psixologiyasida E.A.Klimov va N.S.Prjajnikov tadqiqotlarida keng yoritilgan. N.S.Prjajnikov kasbiy o‘zini o‘zi belgilashni tashqi ta’sir natijasi emas, balki shaxsning faol izlanish jarayoni sifatida talqin etadi. M.Savikas va hammualliflari tomonidan ilgari surilgan “hayotni loyihalash” (life designing) paradigmasi esa kasbni bir martalik tanlov emas, balki shaxsning uzluksiz o‘z trayektoriyasini qurish jarayoni sifatida qaraydi [10]. Aynan shu g‘oyalar zamonaviy “kasbiy navigatsiya” tushunchasining asosini tashkil etadi.

Mahalliy adabiyotlarda o‘smirlarning kasb tanlashiga oiladagi gender stereotiplarining ta’siri psixologik jihatdan tahlil qilingan [19]. Shu bilan birga, mahalla institutining, ayniqsa yangi tashkiliy shakl - “mahalla yettiligi”ning genderga sezgir kasbiy navigatsiyadagi o‘rni hali maxsus tadqiqot predmeti bo‘lmagan.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-pedagogik tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish, tizimli yondashuv va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

An’anaviy kasbga yo‘naltirish ko‘p hollarda kattalar tomonidan o‘quvchiga tayyor tavsiya berish, ya’ni “unga mos kasbni ko‘rsatish” shaklida kechadi. Kasbiy navigatsiya esa

o‘quvchining o‘zi kasblar olamida mo‘ljal olishini, o‘z qiziqish va imkoniyatlarini anglashini, turli yo‘llarni sinab ko‘rib, ongli qaror qabul qilishini nazarda tutadi. Bunda kattalar – o‘qituvchi, ota-ona, mahalla vakillari yo‘l ko‘rsatuvchi emas, balki “navigator”, ya’ni yo‘lni topishga ko‘maklashuvchi rolini bajaradi. Shu asosda biz genderga sezgir kasbiy navigatsiyani o‘quvchining jinsiga bog‘liq stereotiplardan xoli holda, o‘z qiziqish, qobiliyat va qadriyatlariga tayanib, kasblar olamida mustaqil mo‘ljal olishi va kasbiy trayektoriyasini qurishiga pedagogik ko‘maklashish jarayoni deb ta’riflaymiz.

Hamkorlik ikki mustaqil subyektning ayrim masalalar bo‘yicha birgalikdagi faoliyatini anglatsa, integratsiya ularning maqsad, mazmun, resurs va natijalarni baholash darajasida yagona tizimga birlashuvini bildiradi. Mahalla va maktab integratsiyasi deganda biz quyidagilarni tushunamiz: umumiy maqsad va yagona reja asosida ishlash; har bir o‘quvchi bo‘yicha axborot almashinuvining uzluksizligi; mahalla resurslarining (kasb egalari, tadbirkorlar, hunarmandlar, ishlab chiqarish obyektlari) ta’lim jarayoniga kiritilishi; natijalarni birgalikda baholash.

Amaldagi normativ hujjatlar asosida “mahalla yettiligi” a’zolari va maktab pedagogik jamoasining genderga sezgir kasbiy navigatsiyadagi funksiyalari 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Genderga sezgir kasbiy navigatsiyada mahalla va maktab subyektlarining funksiyalari

Subyekt	Kasbiy navigatsiyadagi funksiyasi
Mahalla raisi	Mahalla va maktabning yagona kasbiy navigatsiya rejasini muvofiqlashtirish; o‘quvchilarning fanlar, axborot texnologiyalari va kasblarni o‘rganishi uchun shart-sharoit yaratish
Yoshlar yetakchisi	Maktab taqdim etgan o‘quvchilar ro‘yxati asosida ustozlik tizimini tashkil etish; kasb egalari va tadbirkorlarni jalb qilish; ustozlarni tanlashda gender muvozanatiga rioya qilish
Xotin-qizlar faoli	Qizlarni an’anaviy bo‘lmagan (texnik, raqamli, tadbirkorlik) yo‘nalishlarga jalb etish; turli sohalarda muvaffaqiyatga erishgan ayollar bilan uchrashuvlar tashkil etish; onalar bilan tushuntirish ishlari
Hokim yordamchisi	Mahalla hududidagi korxonalar va bo‘sh ish o‘rinlari asosida “mahalla kasblar xaritasi”ni shakllantirish; kasbiy sinov uchun ishlab chiqarish obyektlarini aniqlash
Ijtimoiy xodim	Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlari, ayniqsa qizlarning ta’limni davom ettirishi va kasb egallashini manzilli qo‘llab-quvvatlash
Profilaktika inspektori	Xulq-atvorida murakkabliklar kuzatilgan o‘quvchilarni kasbiy sinovlar va ustozlik dasturlariga jalb etish orqali ijobiy bandlikka yo‘naltirish

Subyekt	Kasbiy navigatsiyadagi funksiyasi
Soliq inspektori	Moliyaviy savodxonlik va oilaviy tadbirkorlik asoslari bo‘yicha mashg‘ulotlar; o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlarini tushuntirish
Maktab (direktor o‘rinbosari, sinf rahbari, psixolog)	Kasbiy qiziqishlarni erta aniqlash va gender stereotiplarini diagnostika qilish; o‘quvchilar ro‘yxatini mahallaga taqdim etish; individual kasbiy navigatsiya xaritasini yuritish

Jadvaldan ko‘rinadiki, “mahalla yettiligi”ning har bir a’zosi o‘z vakolati doirasida kasbiy navigatsiyaga hissa qo‘shishi mumkin. Biroq bu imkoniyatlar faqat maktab bilan yagona tizimga birlashtirilgandagina samara beradi. Masalan, PF-163-son Farmonda maktab direktor o‘rinbosari sinf rahbari va psixolog bilan birgalikda kasblarni o‘rganishga qiziqish bildirgan o‘quvchilarni aniqlab, ularning ro‘yxatini yoshlar yetakchisi va mahalla raisiga taqdim etishi belgilangan [4]. Bu esa maktab va mahalla o‘rtasidagi axborot oqimining huquqiy asosini yaratadi. Gender yondashuv nuqtai nazaridan bu ro‘yxatni shakllantirishda o‘quvchining jinsiga emas, balki uning real qiziqish va qobiliyatlariga tayanish, ustozlarni tanlashda esa an’anaviy bo‘lmagan kasblardagi ayollar va erkaklarni ham jalb etish muhimdir.

Tadqiqot natijasida gender yondashuv asosida o‘quvchilarning kasbiy navigatsiyasida mahalla va maktab integratsiyasining to‘rt komponentli modeli ishlab chiqildi.

Maqsadli komponent o‘quvchilarda gender stereotiplardan xoli, ongli va mustaqil kasbiy tanlovga tayyorlikni shakllantirishni nazarda tutadi.

Mazmuniy komponent kasblar olami haqidagi bilimlar, gender tengligi tushunchalari, o‘z-o‘zini anglash va kasbiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Tashkiliy-texnologik komponent integratsiyaning amaliy mexanizmlarini qamrab oladi: individual kasbiy navigatsiya xaritasi; mahalla kasblar xaritasi; gender-neytral kasbiy sinovlar (o‘quvchining mahalla korxonasi yoki ustaxonasida ustoz yonida kasbni amalda sinab ko‘rishi); rol-modellar bilan uchrashuvlar; ota-onalar uchun kasbiy maslahat soatlari; “Yoshlar yagona elektron platformasi” orqali o‘quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va kuzatib borish.

Natijaviy-baholovchi komponent o‘quvchilarning kasbiy navigatsiyaga tayyorligini motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv mezonlar asosida baholashni nazarda tutadi.

Model o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi (2-jadval). L.Gotfredson nazariyasiga muvofiq [8], birinchi bosqich boshlang‘ich sinflardan boshlanadi, chunki kasblar haqidagi gender stereotiplari aynan shu yoshda shakllanadi.

2-jadval

Genderga sezgir kasbiy navigatsiyaning bosqichlari

Bosqich (sinflar)	Maktab vazifasi	Mahalla vazifasi
Propedevtik (1–4)	Kasblar olami bilan tanishtirish; o‘quv materiallarida kasblarni jinsga bog‘lamay tasvirlash	Mahalla kasb egalari bilan ekskursiya va uchrashuvlar; ota-onalar bilan suhbatlar

Bosqich (sinflar)	Maktab vazifasi	Mahalla vazifasi
Izlanish (5–7)	Qiziqishlarni diagnostika qilish; gender stereotiplarini aniqlash; to‘garaklar	Rol-model uchrashuvlari (an’anaviy bo‘lmagan kasbdagi ayollar va erkaklar)
Kasbiy sinov (8–9)	Individual kasbiy navigatsiya xaritasini yuritish; kasbiy sinov natijalarini tahlil qilish	Ustozlik tizimi; mahalla korxonalarida gender-neytral kasbiy sinovlar
Qaror qabul qilish (10–11)	Ta’lim trayektoriyasini tanlashda individual maslahat	Bandlik, kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlik imkoniyatlari bo‘yicha manzilli ko‘mak

Modelni amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi: *gender sezgirlik* (kasbiy imkoniyatlarni jinsga bog‘lamaslik, qizlar va o‘g‘il bolalarga teng imkoniyat yaratish); *uzluksizlik* (1-sinfdan bitiruvgacha izchil ishlash); *manzillilik* (har bir o‘quvchining individual trayektoriyasini hisobga olish); *ustozlik* (kasb egasining shaxsiy namunasi orqali o‘rgatish); *raqamlilik* (elektron platformalar orqali axborot almashinuvi va monitoring). Muhokama shuni ko‘rsatadiki, taklif etilgan model xorijiy tajribadagi maktab va hamjamiyat sherikligi g‘oyalarini [7] O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy instituti - mahalla bilan uyg‘unlashtiradi. Mahalla o‘quvchi yashaydigan, uning oilasi va qo‘shnilari faoliyat yuritadigan real muhit bo‘lgani uchun kasblar olami bilan tanishtirishning eng yaqin va ishonchli manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, mahalla an’anaviy qarashlarning saqlanib qoladigan muhiti ham bo‘lishi mumkin. Shu bois mahalla vakillarining o‘zlarida gender sezgirlikni rivojlantirish integratsiyaning muhim sharti hisoblanadi.

XULOSA.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, “kasbiy navigatsiya” tushunchasi o‘quvchini kasb tanlash jarayonining faol subyekti sifatida qaraydi va zamonaviy mehnat bozori sharoitida an’anaviy kasbga yo‘naltirishdan ko‘ra samaraliroq hisoblanadi. Ikkinchidan, “mahalla yettiligi”ning joriy etilishi va PF-163-son Farmon mahalla va maktabni oddiy hamkorlikdan integratsiyaga o‘tkazish uchun huquqiy va tashkiliy asos yaratdi. Uchinchidan, taklif etilgan to‘rt komponentli model va to‘rt bosqichli kasbiy navigatsiya trayektoriyasi mahalla va maktab subyektlarining funksiyalarini genderga sezgir yagona tizimga birlashtirish imkonini beradi. To‘rtinchidan, gender stereotiplari erta yoshda shakllanishini hisobga olib, kasbiy navigatsiyani boshlang‘ich sinflardan boshlash maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning keyingi bosqichida modelning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali tekshiriladi va mahalla vakillari uchun genderga sezgir kasbiy navigatsiya bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 2-sentabr, O‘RQ-562-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 2025-yil 10-sentabr, PF-163-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – www.lex.uz.

5. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 28-maydagi 297-IV-son qarori bilan tasdiqlangan) // www.lex.uz.

6. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.

7. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. – 2nd ed. – Boulder, CO: Westview Press, 2011. – 672 p.

8. Gottfredson L.S. Circumscription and compromise: A developmental theory of occupational aspirations // Journal of Counseling Psychology. – 1981. – Vol. 28, № 6. – P. 545–579.

9. Bem S.L. Gender schema theory: A cognitive account of sex typing // Psychological Review. – 1981. – Vol. 88, № 4. – P. 354–364.

10. Savickas M.L., Nota L., Rossier J., Dauwalder J.-P., Duarte M.E., Guichard J., Soresi S., Van Esbroeck R., van Vianen A.E.M. Life designing: A paradigm for career construction in the 21st century // Journal of Vocational Behavior. – 2009. – Vol. 75, № 3. – P. 239–250.

11. Lent R.W., Brown S.D., Hackett G. Contextual supports and barriers to career choice: A social cognitive analysis // Journal of Counseling Psychology. – 2000. – Vol. 47, № 1. – P. 36–49.

12. Mann A., Denis V., Schleicher A., Ekhtiari H., Forsyth T., Liu E., Chambers N. Dream Jobs? Teenagers’ Career Aspirations and the Future of Work. – Paris: OECD, 2020. – 44 p.

13. UNESCO. Cracking the code: Girls’ and women’s education in science, technology, engineering and mathematics (STEM). – Paris: UNESCO, 2017. – 85 p.

14. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов н/Д: Феникс, 1996. – 512 с.

15. Пряжников Н.С. Профессиональное самоопределение: теория и практика. – М.: Академия, 2008. – 320 с.

16. Barotova Sh.B. Gender yondashuv asosida o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirishda mahalla, oila va ta’lim muassasalari hamkorligi // O‘zMU Xabarlari. – 2021. – № 1/4.

17. Barotova Sh.B. Gender yondashuv asosida bolalarni kasbga yo‘naltirishda oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligini yo‘lga qo‘yish // Scientific theoretical and methodical journal. – 2025. – № 4. – B. 298–308.

18. Barotova Sh.B. The participation of foreign local community institutions in gender-based career guidance: an analytical review // Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. – Berlin, 2026. – P. 32–39.

19. Xodjaeva K., Jabborov X.X. Oilada gender stereotiplarining o‘smirlarning kasb tanlash motivlariga ta’siri // Oriens. – 2026. – № 6 (20). – B. 424–427. – DOI: 10.24412/2181-1784-2026-20-424-427.